

## BOLALARDA ESHITISH NUQSONLARINING KELIB CHIQISH SABABLARI, TURLARI

**Soliyev Nuriddinjon Muxiddinjon o'g'li**

**Ismonaliyeva Umida Jasurbek qizi**

**Andijon davlat universiteti**

**Ijtimoiy-iqtisodiyot fakulteti Amaliy psixologiya yo'nalishi talabalari**

**+998911382085**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.11101299>**

**Annotatsiya:** Ushbu maqoladan maqsad eshitishda nuqsoni bor bo'lgan bolalar haqida ma'lumot hamda ularning psixokorreksiyasi, bunday kasalliklar profilaktikasi haqida tushunchalar berish.

**Kalit so'zlar:** kar va zaif eshituvchilar, kompensatorlik, analizatorlar, nuqson, ong, surdopedagogika.

### **Аннотация**

Цель данной статьи-дать информацию о детях с нарушениями слуха, а также понимание их психокоррекции, профилактики таких заболеваний.

**Ключевые слова:** глухие и слабослышащие, компенсатор, анализаторы, дефект, сознание, сурдopedagogika.

### **Annotation**

The purpose of this article is to provide information about children with hearing impairments as well as insights into their psychocorrection, prevention of such diseases.

**Keywords:** deaf and weak hearing, compensatory, analyzers, defect, consciousness, surdopedagogy.

### **KIRISH**

Nutq-eshituv analizatorisiz shakllanmaydimi? Nutq— murakkab ruhiy faoliyatdir. U ruhiy jarayonlarning tarkib topishiga va bolaning umuman barkamol bo'lib o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Nutq eshituv organlari vositasi bilan idrok etishga asoslangan bo'lib,atrofdagilarga taqlid etish yo'li bilan rivojlanib boradi.Og'zaki nutqning shakllanishida eshituv analizatori, nutqni harakatga keltiruvchi analizator ishtirok etadi. Nutqni harakatga keltiruvchi analizator eshituv analizatoribilan mahkam bog'langan holda ishlaydi, eshituv analizatorining rivojlanish darajasi esa ko'p jihatdan talaffuzga bog'liq. Bola nutqining o'sib borishi tovushlar talaffuzi, fiziologik va fonematik eshitishning kamol topib borish darajasi bilangina xarakterlanib qolmay, balki eng muhimi — o'z nutqi va atrofdagilar nutqidagi so'zlarning tuzilishini, tovush tarkibini farqlay olish qobiliyati bilan ham xarakterlanadi. So'z tarkibini anglab olishdan iborat bu qobiliyat grammatik va leksik komponentlarning rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tasniflash tarixi bir necha asrlarga teng. Jumladan, birinchi tasniflash XVI asrlarga to'g'ri keladi. Undan Italiya olimi D. Kardano 3 guruh karlarni ajratgan, karlikni vujudga kelish vaqtiga bog'liqligi va nutqiy rivojlanish darajasiga asoslangan:

- 1) tug'ma karlar;
- 2) erta kar bo'lgan (nutqi rivojlangunga qadar);
- 3) kech kar bo'lganlar (nutqi saqlanib qolganlar).

Parijdagi kar va zaif eshituvchi o'quvchilar instituti vrachi J.Itar besh guruh karlarni, ularning tovushlari va nutqlarning eshitishiga qarab ajratgan:


- 1) yuqori nutq va tovushlarni qulog'ining yaqinida eshituvchilar;
- 2) unli va undoshlilarni ajratuvchilar;
- 3) ayrim unli va undoshlarni ajratuvchilar;
- 4) nutqlarni eshitmaydigan, lekin baland tovushlarni eshitadiganlar;
- 5) umuman eshitishida nuqsoni bo'lganlar. Karlik - eshitishning mutlaqo yo'qligi (mutlaqo eshitmaslik) yoki pasayishining shunday shakli, unda og'zaki nutq faqat qisman, eshitish apparatlari (moslamalari) yordamida idrok etiladi.

Kar va zaif eshituvchi bolalar turlari .

Turg'un eshitish nuqsonlari kelib chiqish sabablariga ko'ra tug'ma va orttirilgan bo'lishi mumkin.

Kar-soqov bolalarning 25-30 foizida eshitish nuqsonlari tug'ma bo'ladi. Bunga sabab: onaning homiladorlik davrida turli kasalliklar, masalan, gripp bilan kasallanishi, ota-onalarning ichkilik ichib turishi, onaning homiladorlik davrida bilar-bilmas dori-darmonlarning iste'mol qilishi, homilaning shikastlanishi, irsiyat, genetik faktorlar.

Eshitishdagi orttirilgan nuqsonlar quloq yoki eshitish analizatorining tuzilishidagi kamchiliklardan kelib chiqishi mumkin. Bunga oliy asab markazi, o'tkazuvchi yo'llar yoki quloqning o'zidagi o'zgarishlar sabab bo'ladi. Bolaning ilk yoshida otit, parotid, meningit, qizamiq, qizilcha, gripp kasalliklari bilan kasallanishi ba'zi hollarda kar-soqovlik yoki turli darajadagi zaif eshitishga olib kelish mumkin. Hozirgi kunda ekologiya masalalarini keng o'rganilishi eshitish nuqsonlarining oldini olishda katta ahamiyatga ega. Eshitish analizatorining turli zaxarli kimyoviy dorilar juda kuchli ta'sir etib, ayniqsa, analizatorning o'tkazuvchi asab tolalarini ishdan chiqaradi, natijada bola yaxshi eshita olmaydigan bo'lib qoladi.



Odam qulog'ining tuzilish chizmasi.

1-quloq suprasi; 2-tashqi eshituv yo'li; 3-quloqning nog'ora pardasi; 4-eshituv suyaklari; 5-ichki quloq.

Eshitmaydigan bolalarga ta'lim berishda ularni har tomonlama kamol toptirish negizida nutq o'stiriladi.

Eshitmaydigan bolalarning nutqiy rivojlanishi ularning kundalik hayotida, ta'lim dasturida belgilangan barcha faoliyat turlarini tashkil etish jarayonida va uyg'unlikda ta'minlanishi zarur.

Ta'limiy, tarbiyaviy va korreksion va ishlar maxsus yo'naltirilgan ta'lim vositasida hal etiladi. Bunda ta'lim berishning umumiy, maxsus metod va usullaridan foydalanib, eshitish qobiliyatining buzilishi bilan bog'liq kamchiliklarni kompensatsiyalash ishlari ko'zlanadi.

Maktabgacha yoshdagi eshitmaydigan va normal eshitadigan bolalarga ta'lim-tarbiya berishning farqi nimada? Ma'lumki, eshitadigan bolaga ta'lim berishning muhim sharti va samarali vositasi hisoblangan nutqiy muloqot eshitmaydigan bolalarda maxsus o'qitishsiz shakllanmaydi. Shu sababli, bolalarning so'zlasuv nutqini shakllantirish uchun boshqa yo'llar izlash zarurati vujudga keladi.

Ko'p yillik ilmiy tadqiqotlar va amaliyot natijasida bevosita muloqotda nutqni rivojlantirishga yordam beruvchi kompensator vosita daktilologiya ekanligi isbotlandi. Bunda, eshituv orqali nutqni o'zlashtirish, og'zaki va daktil nutqni ko'rib idrok etish psixologik jihatdan har xil jarayonlar ekanligini unutmazlik kerak.

Daktil nutqni bevosita muloqotda o'zlashtirilishini ta'minlash uchun bolada sensor qobiliyat, ya'ni, ko'rish, harakat, taktil-vibratsion sezgi va idrok hamda psixik funksiyalar yuqori darajada bo'lishi talab etiladi. Eshitmaydigan bolalarni talaffuz qilishga, labdan o'qishga maxsus o'rgatib borish natijasida og'zaki muloqoti rivojlanib boradi.

Og'zaki nutqni o'stirish va eshitish qobiliyatini rivojlantirish - maktabgacha tarbiya yoshidagi eshitmaydigan bolalar ta'limining maxsus vazifalaridir. Talaffuzni shakllantirish, labdan o'qishga o'rgatish murakkab jarayon bo'lib, barcha bolalar bilan alohida mashg'ulotlar uchun ancha vaqt ajratilishi talab etiladi.

Nutqni egallash chog'ida eshitmaydigan bola yana bir to'siqqa duch keladi. Me'yorda eshitadigan bola, gapirishni boslilamasdanoq ko'pgina so'zlar ma'nosini tushunadi, asta-sekin u atrofdagi buyumlar va hodisalar nomini eslab qoladi. Nutqiy muloqot jarayonida so'zlarning ma'nosi umumlashtiriladi, so'zlar faol nutqda ishlatiladi.

Eshitmaydigan bolalarda esa bu jarayon o'zgacha kechadi. Eshitmaydigan bolalarning nutqiy muloqoti cheklanganligi sababli ularning tafakkuri orqada qolib rivojlanadi, nutq vositasida atrofdagi olamni bilish imkoniyati chegaralanadi. Shuning uchun eshitmaydigan bolalar bilan tasavvur va tushunchalarni shakllantirish va umumlashtirish yuzasidan ko'proq ish olib borish talab etiladi.

Maxsus ta'lim muassasasida bolalarni keng ma'noda nutqiy muloqotga tayyorlash maqsadida o'qishga o'rgatiladi, mustaqil o'qish esa cheklangan nutqiy muloqotni kompensatsiyalash vositasi sifatida xizmat qiladi.

Maxsus ta'lim-tarbiyaviy va korreksion vazifalardan kelib chiqqan holda, maktabgacha tarbiya muassasalarida mashg'ulotlar hajmi va ahamiyati ko'payadi. Maslig'ulotlar o'yin tarzida o'tkazilsa-da, ular ko'p vaqtni egallaydi, dam olish va erkin o'yin faoliyati uchun kam vaqt qoladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi eshitmaydigan bolalar esa tovushlar talaffuzini o'zlashtirishda ancha orqada qoladilar. O'quvchilar alifboning asosiy tovushlar talaffuzini yarim o'quv yil davomida o'zlashtira olsa, maktabgacha tarbiya yoshidagi bola ta'limning uchinchi yiliga kelib, asosiy tovushlarni talaffuz eta olishi kerak. Shuning uchun, daktil nutq, ayniqsa dastlabki uch yilda, maktabgacha yoshdagi eshitmaydigan bolalar nutqini bevosita muloqotda shakllantirish vositasi hisoblanadi. O'yin bolalarning asosiy faoliyatlaridan biri bo'lib, o'yin jarayonida eshitmaydigan bolalarning bilish jarayonlari shu jumladan nutqi shakllanadi.

Yuqorida e'tirof etilganlardan kelib chiqqan holda, maktabgacha yoshidagi eshitmaydigan bolalarning nutqi, nutqiy va psixik yetishmovchiliklarni kompensatsiyalash vositasi hisoblanadi hamda u quyidagi tamoyillar asosida rivojlanadi.

Eshitmaydigan bolalarning nutqi bevosita muloqotda hamda maxsus mashg'ulotlarda rivojlantiriladi.

Analitik o'qishga (3, 4, 5) yoshdan boshlab o'rgatib boriladi.

Ta'lim jarayonida daktil nutqdan foydalaniladi.

Ta'lim jarayonida leksik va grammatik tushunchalar, so'z va tushunchalarni umumlashtirish shakllantirilib boriladi.

So'zlashuv muloqotni kengaytirish vositasi sifatida o'qishga va hikoyalarni ravon bayon etishga o'rgatish usullaridan keng foydalaniladi.

Mazkur tamoyillarga amal qilish uchun nutqni muloqot jarayonida va muloqot vositasi sifatida shakllantirish talab etiladi. Bunday imkoniyat daktil nutqdan foydalanish sharoitida yaratiladi.

**Xulosa:** bizning xulosamiz shundan iborat-ki har qanday nuqsonli bolalar tug'ilishiga insoniyatning o'zi aybdor. Chunki, insoniyat o'z nafi yo'lida har qanday razillik va yomonlikka qo'l urmoqda. Dengiz, daryo, o'rmon, umumiy tabiatga ziyon yetkazibdi. Buning oqibatida esa flora va fauna olami buzilibdi. Inson tabiatga haddan ziyod ziyon keltirmoqda va albatta bu judaham yomon. Bundan tashqari turli xildagi illat va buzuvchi zararli odatlar insoniyat kelajagiga bolta urmoqda. To'g'ri buning nuqsonli bolaga nima aloqasi bor deyishingiz mumkin lekin, shu zararli odatlar va tabiatga yetkazilgan ziyonlar inson irsiyatini o'zgartirishga olib keladi. Irsiyatdagi o'zgarishlar esa bashariyatning bunday kasalliklarni yengishga bo'lgan immunitetini yo'qolishiga sabab bo'lishi hech gap emas. To'g'ri bunday bo'lishini hech kim istamagan istamaydi ham, lekin, hammamiz bir kuch bo'lib harakat qilsak ushbu kabi nuqson-kasalliklarni oldini olgan bo'lamiz. Ushbu maqolani o'qiyotgan aziz o'quvchi sizdan iltimos o'zingiz va oilangizni yomon illatlardan va tabiatning tabiiy resurslariga ziyon yetkazishdan saqlang!!!

### References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, O'zbekiston nashriyoti, 2017.
2. Karimov I.A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. Toshkent. O'zbekiston. 1992.
3. Shomaxmudova R. Bolalar talaffuzidagi nuqsonlarni bartaraf etish. T., 2001
4. E.G'oziyev "Umumiy psixologiya". Toshkent, 2017-y.
5. Z. Ibodullayev "Tibbiyot psixologiyasi". Toshkent, 2008-y.
6. G'oziyev E. Yosh psixologiyasi. — Toshkent 1994
7. Surdopedagogika pod red. Nikitinoy M.I. M., Prosvesheniye, 2002

8. [www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)
9. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) elektron kutubxonasi.
10. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)



INNOVATIVE  
ACADEMY